



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 29-aprel, shanba,
50 (23.771)-son

**KUN
HIKMATI**

Odamlarni
tinglashni
o'rganing.
Aks holda ular
sizni tinglamay
qo'yadi

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz

30-aprel – O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI REFERENDUMI KUNI!



ISLOHOTLAR NATIJASI HUDUDLAR OBODLIGI VA ODAMLAR HAYOTIDA O'Z AKSINI TOPMOQDA

Oliy Majlis Senati raisi Tanzila Norboyeva mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning hududlarda qanday samara berayotganini o'rganish va aholi bilan muloqot qilish maqsadida 27-aprel kuni viloyatimizda bo'ldi.

Senat raisi dastlab viloyat hokimligida xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari deputatlari, nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari bilan suhbatlashdi.

Uchrashuvda viloyatda keyingi yillarda amalga oshirilgan ulkan bunyodkorlik ishlari, odamlar hayoti va turmush tarzidagi o'zgarishlar haqida so'z yuritildi, 30-aprel kuni o'tkaziladigan referendumga tayyorgarlik, konstitutsiyaviy qonun loyihasi yuzasidan fikr-mulohazalar bildirildi.

Konstitutsiyaviy qonun loyihasi qanday jarayonlardan o'tib tayyorlanganidan yaxshi xabardorsizlar – birinchi bosqichning o'zida 60 mingdan ortiq, ikkinchi bosqichda esa 150 mingdan ko'proq taklif va mulohazalar bildirildi, – dedi T.Norboyeva. – 190 dan ortiq davlat tajribasi o'rganildi, loyiha 6 turdagi ekspertizadan o'tkazildi. Har bir taklif, kerak bo'lsa, har bir so'z atroflicha o'rganildi. Yangilanyotgan Konstitutsiyamizda parlament faoliyati bilan bog'liq muhim o'zgarishlar ham bor. Senatni ixcham, xalqchil va hududlar manfaatini ifoda etadigan idoraga aylantirish bo'yicha normalar kiritilgan. Senatorlar soni hozirgi 100 nafardan 65 nafargacha tushirilmogda. Har bir hududdan 6 nafardan emas, 4 nafardan senator saylanadi. Prezident tomonidan tayinlanadigan senatorlar soni esa 16 nafardan 9 nafargacha kamaymogda.

Uchrashuvda xotin-qizlarning jamiyatdagi faolligini oshirish, haq-huquqlari himoyasini kuchaytirish borasidagi o'zgarishlar ham alohida ta'kidlandi. Xususan, parlamentga o'tkaziladigan keyingi saylovlarda xotin-qizlar sonini yanada oshirish rejalashtirilayotganligi qayd etildi.

Shundan so'ng Oliy Majlis Senati raisi T.Norboyeva Samarqand shahrida-

rish, xotin-qizlar va yoshlar bandligini ta'minlash, notinch oilalar bilan ishlash, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish borasidagi faoliyat yuzasidan fikr almashildi. Mahalla faollarining ish jarayonidan kelib chiqib, taklif va mulohazalari eshitildi.

"SamAntepGilam" korxonasining mahalladagi tikuvchilik sexi faoliyati bilan tanishildi. Uchrashuv chog'ida besh nafar nogironligi bo'lgan shaxsga nogironlik aravachasi topshirildi. Shuningdek, aholining murojaatlari eshittilib, ularni qiyin kelayotgan masalalarga mahalliy hokimliklar va mutasaddi idoralar jalb qilingan holda yechim topilishi ma'lum qilindi.

Oliy Majlis Senati raisi T.Norboyeva Samarqandga safari davomida Urgut tumanidagi ishlab chiqarish korxonalarida bo'lib, tadbirkorlar va ishchi-xizmatchilar bilan suhbatlashdi. Samarqand davlat universitetining Urgut filiali professor-o'qituvchilari va talabalari bilan uchrashdi. Tuman markazida joriy yilda faoliyat boshlagan "Pulse Medikal" xususiy tibbiyot markazida ham bo'lib, bu yerda yaratilgan shart-sharoit, aholiga zamonaviy tibbiy xizmat ko'rsatish jarayonlari bilan yaqindan tanishdi.

Bir necha yil oldin Urgut tumaniga kelganimda bugungidan butunlay o'zgacha manzaraga ko'zim tushgandi, – dedi T.Norboyeva. – Yo'llar juda abgor, bino va inshootlar ham shunga yarsha edi. Endi esa tuman ancha obod, ko'rkam maskanga aylanibdi. Ayniqsa, yirik ishlab chiqarish korxonalari tashkil etilgani, iqtisodiy zona samarali faoliyat olib borayotgani quvonarli. Bu aholi turmush tarzi o'zgarayotgani, farovonligi oshayotganidan darak beradi.



gi Charmgari mahallasida hududdagi mahalla fuqarolar yig'inlarida faoliyat ko'rsatayotgan "beshlik" – rais, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi va profilaktika inspektorlari bilan uchrashdi.

Suhbat chog'ida mahallalarda ijtimoiy muammolarni hal etish, ehtiyojmand oilalarni kambag'allikdan chiqara-

Senat raisi shuningdek, Samarqand tumanidagi "Kelajak vorislari" oilaviy mehribonlik uyida bo'lib, bu yerda oila muhitida kamolga yetayotgan yetti nafar o'g'il-qizning hayoti bilan qiziqdi, ularning ota-onalari bilan suhbatlashdi. Oilaviy mehribonlik uyiga sport jihozlari va kitoblarni sovg'a qilindi.

Xurshida ERNAZAROVA.

Mutasaddilar axboroti eshitildi

O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazuvchi 7-Samarqand okrug komissiyasining navbatdagi majlisi o'tkazildi.

Komissiya raisi F.Toshev boshqargan majlisda okrug hududida referendumga tayyorgarlikning borishi, ovoz berishni o'tkazish uchun ko'rilayotgan choralar muhokama etildi.

Referendum uchastkalarida elektr energiyasi ta'minoti, aloqa va internet tarmoqlarining

komissiya a'zolari va ovoz beruvchilar uchun zarur shart-sharoit yaratilgani, so'haviy xizmatlar mutaxassislari birlashtirilgan ma'lum qildi.

Shuningdek, majlisda 19-26-aprel kunlari o'tkazilgan muddatidan oldin ovoz berish jarayonlari yakunlari ham ko'rib chiqildi.



ishlashi, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar yuzasidan viloyat elektr tarmoqlari korxonasi, "O'zbektelekom" aksiyadorlik jamiyati Samarqand filiali va viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi rahbarlarining axboroti eshittildi.

Mas'ullar okrug hududidagi barcha uchastkalarda

Yig'ilishda komissiya vakolatiga tegishli boshqa masalalar ham muhokama etildi.

Majlisdan so'ng okrug matbuot markazida ommaviy axborot vositalari xodimlari uchun brifing o'tkazildi va okrug hududida referendumga hozirlik jarayonlari haqida ma'lumot berildi.



INDONEZIYADAN KELADIGAN SAYYOHLAR KO'PAYADI

Viloyat hokimligida Indoneziya Respublikasi parlamenti Vakillar palatasi spikeri o'rinbosari Rahmat Gobel boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuv o'tkazildi.

Erkinjon Turdimov mehmonlarni Samarqandga tashrifi bilan qutlab, keyingi yillarda O'zbekiston va Indoneziya mintaqalari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlik mustahkamlanib borayotganini ta'kidladi.

Xususan, ziyorat turizmi sohasidagi aloqalar ikki tomon uchun ham manfaatli bo'layotgani qayd etildi. Joriy yil fevral oyida viloyatimiz delegatsiyasining Indoneziyaga safari davomida parlamentda vitse-spikeri bilan turizm bo'yicha hamkorlik yuzasidan uchrashuvlar tashkil etilgan edi.

Joriy yilning 27-aprelidan e'tiboran "Toshkent-Jakarta" yo'nalishida to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlar yo'lga qo'yildi. Ushbu yo'nalish-

dagi ilk parvozda yurtimizga tashrif buyurgan Rahmat Gobel indoneziyaliklarning O'zbekistonga qiziqishi yuqoriligini bildirdi. Ayniqsa, Samarqanddagi muqaddas qadamjolarini ziyorat qilish istagida bo'lganlar ko'pchilikni tashkil etishi ta'kidlandi. Xorijlik sayyohlar uchun yurtimizda yaratilayotgan imkoniyat va qulayliklar Indoneziyadan ham O'zbekistonga keladigan turistlar oqimini yanada ko'paytirishga xizmat qilishi qayd etildi.

Uchrashuvda turli sohalaridagi hamkorlikning istiqbolari ham muhokama etildi.

Mehmonlar Samarqanddagi tarixiy-madaniy yodgorliklarni ziyorat qildi.

Husan ELTOYEV.

JARROHLIK SOHASIDA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALAR

27-29-aprel kunlari Samarqandda Osiyo endoskopik va laporoskopik xirurglar jamiyati (ELSA)ning "Ipak yo'lida minimal invaziv xirurgiya" mavzuidagi I bahorgi kongressi o'tkazilmoqda.

Xalqaro anjuman doirasida 27-aprel kuni Samarqand davlat tibbiyot universiteti ixtisoslashgan bolalar xirurgik klinikasida "Laporskopik mahoratlarni va egiluvchan endoskopiya" mavzusida seminar, amaliy mashg'ulotlar va mahorat saboqlari o'tkazildi. Yuqori malakali xirurglar tomonidan murakkab jarrohlik amaliyotlari ko'rgazmali tarzda bajarildi.

28-aprel kuni esa Samarqand xalqaro turistik markazida xalqaro kongressning ochilish marosimi o'tkazildi.

Unda Respublika sog'liqni saqlash vazirligi, viloyat hokimligi va Osiyo endoskopik va laporoskopik xirurglar jamiyati (ELSA) vakillari so'zga chiqib, Markaziy Osiyoda ilk bor tashkil etilayotgan mazkur xalqaro forum mamlakatimizda keyingi yillarda tibbiyot sohasiga qaratilayotgan ulkan e'tibor samarasi o'laroq aholiga zamonaviy tibbiy xizmat ko'rsatish sifati va darajasini oshirishga xizmat qilishini ta'kidladi.

Osiyo endoskopik va laporoskopik xirurglar jamiyatining so'nggi kongressi o'tgan yil Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida o'tkazilgan edi, – deydi ELSA bosh kotibi Davide Lomanto.

Keyingi yig'inimiz shu yilning oktabr oyida Turkiyaning Istanbul shahrida o'tkazilishi ko'zda tutilgan edi. Lekin o'zbekistonlik hamkasblarimizning taklifi bilan, qolaversa, keyingi yillarda ushbu mamlakatda sog'liqni saqlash tizimida kuzatilgan juda katta o'zgarish va yangiliklar sababli ilk bor jamiyatning bahorgi kongressini O'zbekistonda tashkil etdik.

Kecha Samarqand shahridagi ixtisoslashgan bolalar xirurgik klinikasida jamiyatimiz a'zolari, xorijdan kelgan yuqori malakali mutaxassislarni tomonidan mahalliy shifokorlar bilan birgalikda minimal invaziv usulda uchta laporoskopik operatsiya o'tkazildi. Bu jarrohlik amaliyotlarining barchasi muvaffaqiyatli o'tdi va bu kongress ishtirokchilari uchun mahorat



sabog'i bo'ldi. Bugun yana shunday operatsiyalarni ko'rgazmali tarzda o'tkazmoqchimiz. Bugun dunyo tibbiyotida kaminvaziv usulda operatsiya qilish keng ommalashmogda va bu tibbiyotning kelajagi hisoblanadi. O'zbekistonda ham mazkur soha rivojlanib borayotgani quvonarli.

Kongress faxriy prezidenti, professor Azamat Shamsiyevning ta'kidlashicha, yurtimizda ilk bor Osiyo endoskopik va laporoskopik xirurglar jamiyatining kongressi o'tkazilishi mamlakatimiz tibbiyoti uchun tarixiy ahamiyatga ega.

Samarqandlik jarrohlarni 2016-yilda mazkur jamiyatga a'zo bo'lganmiz va uning faoliyatida faol ishtirok etib kelaypmiz, – deydi Azamat Shamsiyev. – Har yilgi kongresslarida qatnashib, minimal invaziv xirurgiya bo'yicha ko'p narsalarni o'rgandik va o'zimizda joriy qildik. Jamiyat bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish hamda yurtimizda endoskopik va laporoskopik jarrohlikni keng qo'llash bo'yicha tajriba almashish maqsadida ELSAning navbatdan tashqari bahorgi anjumanini yurtimizda, Samarqanda

ndda o'tkazish tashabbusi bilan chiqdik. Ikki kundan buyon Osiyoning tibbiyoti rivojlangan davlatlaridan kelgan mutaxassislarni yurtimiz va Markaziy Osiyo xirurglariga zamonaviy texnologiyalar asosida jarrohlik amaliyotlarini bajarish bo'yicha tajribalarini o'rgatmogda, amaliy mashg'ulotlar, operatsiyalar o'tkazilmogda. Quvonarli, so'nggi avlod texnologiyalari asosida amalga oshirilayotgan laporoskopik, endoskopik operatsiyalarda o'zimizning vrachlarimiz ham ishtirok etib, bilim va malakasini oshirmogda. Shuning uchun aytish mumkinki, mazkur forum biz uchun, yurtimiz tibbiyoti uchun juda katta samara beradi.

Kongressga Malayziya, Singapur, Yaponiya, Filippin, Janubiy Koreya, Pokiston, BAA, Hindiston, Qatar, Oman, Turkiya singari 40 dan ortiq davlatdan yuqori malakali xirurglar, ELSA a'zolari, shuningdek, 400 nafardan ortiq o'zbekistonlik va qo'shni davlatlardan kelgan shifokor jarrohlarni, shu soha vakillari ishtirok etmogda.

G'olib HASANOV.

MEHNAT MUNOSABATLARIDAGI O‘ZGARISHLARDAN XABARDORMISIZ?

Kelgusi haftadan 20 yildan ortiq vaqt davomida amalda bo‘lgan 294 moddalik Mehnat kodeksi yangi-lanadi, ya’ni, 30-apreldan 581 moddadan iborat yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi kuchga kiradi. Demak, mehnat huquqi sohasida anchagina aniq bo‘lgan qonunchilik tizimi ishga tushadi. Tax-minimizga ko‘ra, keyingi haftadan aksariyat ish beruvchilar yangi qonunchilikdan bexabar tabiiy ravishda qonunbuzarga aylanadi. Shuni hisobga olgan holda mehnat huquqi sohasidagi yangi-liklarning ayrimlari haqida ma’lumot berishga qaror qildik.

ISH BERUVCHINING MAJBURIYATLARI KENGAYMOQDA

Yangi Mehnat kodeksining 25-moddasiga asosan, ish be-ruvchilar bir qator majburiyatlarga rioya qilishi lozim bo‘ladi.

Masalan, xodimlarni ishga qabul qilishda, mehnat jarayoni-da va xodim bilan mehnat shartnomasini bekor qilishda ushbu Kodeksning mehnat va mashg‘ulotlar sohasida kamsitishni taqiqlash to‘g‘risidagi talablari buzilishiga yo‘l qo‘ymasligi;

- xodimlarga berilishi lozim bo‘lgan ish haqini ushbu Ko-deksga, jamoa shartnomasiga, ichki mehnat tartibi-qoidalaria-ga, boshqa ichki hujjatlarga, mehnat shartnomalariga muvofiq belgilangan muddatlarda to‘liq hajmda to‘lashi;

- xodimlarning vakillariga jamoa kelishuvini va jamoa shartnomasini tuzish hamda ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan to‘liq va ishonchli axborotni taqdim etishi shart.

Ish beruvchining zimmasida shu kabi yana boshqa maj-buriyatlar ham belgilangan.

Darvoqe, yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining 560-mod-dasiga asosan ishga tiklash bo‘yicha sudga da’vo kiritish muddati buyruq nusxasi berilgan kundan boshlab 3 oyga o‘zgarimoqda (amaldagi kodeksda bu 1 oy edi).

ZARARNI MANSABDOR TO‘LAYDI

Mehnati kodeksi 274-moddasida rahbar xodimlar uchun juda muhim norma bor. Unga ko‘ra, sud xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini g‘ayriqonuniy ravishda bekor qilishda yoki xodimni g‘ayriqonuniy ravishda boshqa ishga o‘tkazish-da aybdor bo‘lgan mansabdor shaxs zimmasiga ana shu xodimga ish haqi to‘lanishi munosabati bilan ish beruvchiga yetkazilgan zarar o‘rtni qoplash majburiyatini yuklaydi. Ya’ni, zararni tashkilot emas, amaldor to‘laydi.

Qayd qilish lozim, mehnat shartnomasini bekor qilish yoki boshqa ishga o‘tkazish qonunni ochiq-oydin buzgan holda amalga oshirilgan hollarda va mansabdor shaxs sudning xodimni ishga tiklash to‘g‘risidagi qarori ijrosini kechiktirgan bo‘lsa, shunday majburiyat yuklanadi.

Agar shunday harakatlarni amaldor qilsa, xodimga to‘lana-digan zarar summasi undan undiriladi.

Shu o‘rinda yana bir muhim jihadni eslatib o‘tish lozim. Amaldagi Mehnat kodeksining 237-moddasiga asosan, homi-lador yoki 3 yoshga to‘lmagan bolasi bor ayollarni korxona tugatilishi holatlaridan tashqari boshqa asoslar bo‘yicha ish beruvchi tashabbusiga ko‘ra bo‘shatish mum-kin emas. Jumladan, ularni qisqartirish muno-sabati bilan ham.

Ayolni homiladorligi yoki yosh bolani parva-rish qilayotganligini bila turib, uni ishga olishdan g‘ayriqonuniy ravishda bosh tortish yoki ishdan bo‘shatish Jinoyat kodek-



sining 148-moddasi 2-qismiga muvofiq bazaviy hisoblash miqdorining 25 baravarigacha miqdorda jarima yoki 3 yil-gacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

SHARTNOMANI BEKOR QILISHNING YANGI TURI

Amaldagi Mehnat kodeksining 98-moddasi - korxonalar qayta tashkil etilganda yoki mulkdori almashganda xodimlarning mehnat munosabatlari ularning roziligi bilan davom etishi haqidagi norma.

Bunda xodimning mehnat munosabatlarini davom ettirish uchun uning rasmiy roziligi (arizasi) olinadi va "mehnati muno-sabatlarni davom ettirish haqida" buyruq rasmiylashtiriladi.

Amaldagi Mehnat kodeksida bunday holatda mehnat-ni davom ettirishga rozi bo‘lmasa, nima chora ko‘rilishi kerak, degan savol javobsiz qolib ketgan edi. Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksiga ko‘ra, xodim ishini davom ettirishni rad etsa (qayta tashkil qilingan, mulkdori o‘zgargan yoki bo‘ysinuvi o‘zgargan ishxonasida ortiq ishlashni istamasa), 156-moddasi 5-qismiga asosan "xodim ishini davom ettirishni rad etganligi munosabati bilan" (tegishli ishdan bo‘shatish nafaqasi to‘langan holda) de-gan vaj (ta’rif) bilan mehnat shartnomasi bekor qilinadi.

ICHKI LOKAL HUJJATLARNI O‘ZGARTIRAMIZ(MI?)

Yangi Mehnat kodeksi kuchga kirgach, tashkilotlardagi amaldagi mehnat shartnomalarining ko‘plab shartlari qonun-chilikka zid bo‘lib qoladi. Misol uchun, ayni paytdagi sizdagi

mehnati shartnomalarining mehnat ta’tiliga oid shartlarini quyidagicha mazmunda: "- asosiy mehnat ta’tili 15 (o’n besh) ish kuni; - qo’shimcha mehnat ta’tili 9 (to’qqiz) ish kuni".

Yangi Mehnat kodeksining 217-moddasida haq to‘lanadi-gan yillik mehnat ta’tili kamida 21 kalendar kun bo‘lishi kerak, deyilyapti. Kodeksning 220-moddasida xodimlarga bir tashkilot yoki tarmoqdagi har 5 yil uchun davomiyli-gi 2 kalendar kun bo‘lgan, biroq jami 8 kalendar kundan ko‘p bo‘lmagan qo’shim-

cha mehnat ta’tili berilishi aytilyapti. Qolaversa, 219-moddada qonunchilikda, jamoa kelishuvi, jamoa shartnomasi, ichki hujjat-lar, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan boshqa qo’shimcha mehnat ta’tili ham berilishi mumkinligi ko‘zda tutilyapti.

Demak, birgina mehnat ta’tilining o’zi bo‘yicha ham sizdagi mehnat shartnomalarini yangi MKning 217-, 219- va 220-moddalariga moslashtiradigan joylari bor.

Qolaversa, yangi MKning 170-moddasiga muvofiq, mehnat shartnomasi xodim tomonidan mehnat majburiyatlari bir marta qo‘pol ravishda buzilganligi munosabati bilan bekor qilinganda, ish beruvchining buyrug‘ida

- ichki mehnat tartib qoidalarining bandi;
- tashkilot rahbariga nisbatan mehnat shartnomasining bandi ko‘rsatilishi kerak bo‘ladi.

Umuman, yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining 12-mod-dasiga asosan, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlar quyidagi toifalarga bo‘linmoqda:

- jamoa kelishuvlari;
- jamoa shartnomalari;
- ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo‘mitasi bilan kelishuvga ko‘ra qabul qilinadigan ichki hujjatlar;
- ichki hujjatlar, shu jumladan, ish beruvchi o‘z vakolatlari doirasida yakka o‘zi qabul qiladigan yakka tartibdagi huquqiy hujjatlar.

Demak, yangi Kodeks kuchga kirishi bilan ichki lokal hujjatlar ham o‘zgarishi kerak, yangilarni ishlab chiqish zarur.

NIMA UCHUN KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR O‘TKAZISH ZARURATI TUG‘ILDI?

Ijtimoiy hayot hech qachon bir joyda to‘xtab turmaydi, u muntazam o‘zgarish, yuksalish, tako-millashish jarayonlarida bo‘ladi. Ushbu qonuniyat davlat hayotiga, siyosiy-huquqiy tizimlarga ham

xosdir. Aynan shu ma’noda Konstitutsiya ham jamiyat va davlatning rivojlanishi-ga mos tarzda takomil-lashib borishga zaruriyat sezadi. Demak, Konstitutsiya ham o‘zgarimas dogma, qotib qol-gan qonun emas. U ham jamiyat va davlat miqyosidagi ijtimoiy munosabatlar, qadri-yatlar, institutlar o‘zgarib, rivojlanib borgani sayin ularga mutanosib ravishda o‘zgaradi, ya’ni isloh etib boriladi.

Nima uchun aynan bugun konstitutsi-yaviy islohotlar o‘tkazish zarurati tug‘ilmoq-da?

To‘g‘ri, Konstitutsiyamiz xorijiy ilg‘or tajriba hamda xalqaro standart va talab-larga har tomonlama mos keladi. Biroq hozirgi tahlikali zamon, atrofimizda-gi murakkab vaziyat ona Vatanimiz taqdiriga yanada ulkan mas’uliyat bilan yondashib, kechiktirib bo‘lmay-digan strategik qarorlar qabul qilishni taqozo etmoqda.

Shu o‘rinda tabiiy savollar tug‘iladi. Mana shunday vaziyatda insonning o‘rni va qadri qanday? Qanday siyosiy-huquqiy, iqtisodiy-ijtimoiy va ma’naviy-gu-manitar tamoyillar, qadriyat va manfaatlar biz uchun ustuvor ahamiyatga ega bo‘ladi? Konstitutsiyaviy islohotlar aholiga, xalqimiz farovonligini ta’min-lash, jamiyatimiz va davlatimiz taraqqiyotiga nima beradi?

Amalga oshirilayotgan barcha islohotlarimiz marka-zida inson qadrini ulug‘lash g‘oyasi mujassam. Chunki muqaddas dinimizda ham, buyuk allomalari-miz boy ilmiy va ma’naviy merosida ham, inson hayot gavhari sifatida ulug‘lanadi.

Sobir MIRZAYEV,
viloyat maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i.

Ulug‘ bobomiz Mir Alisher Navoiy ham insonni qiynayotgan muammolar to‘g‘ri hal etilib, uning qadri joyiga qo‘yilsa, albatta, el shod, mamlakat obod bo‘ladi, deb yozganlar. Biz barpo etayotgan Yangi O‘zbekiston uchun inson qadri va xalq manfaati hamma narsadan ustundir. Shu bois inson qadrini yuksaltirish haqiqatda davlat hokimiyati organlarining konstitutsiyaviy burchi va ustuvor vazifasi bo‘lmog‘i shart. Shuningdek, shaxsiy hayot daxlsizligi va uning kafolatlari aynan Konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi kerak.

Asosiy qonunimizda "O‘zbekiston – ijtimoiy davlat" degan tamoyilni mustahkamlash zarurati kun tartibiga chiqdi. Chunki "inson qadri" tushunchasi "ijtimoiy davlat" tushunchasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu g‘oyaning tub negizida ham avvalo, inson qadrini ulug‘lash, insonga xizmat qilishdek oljanob maqsad mujassamdur. Ijtimoiy davlat har bir inson uchun ijtimoiy tenglik va adolat prinsiplari asosida munosib yashash sharoitla-rini yaratib beradi. Bu ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, muhtojlarga yordam berish bo‘yicha samarali siyosat olib boradigan davlat modelidir.

Konstitutsiyamizda fuqarolarimizning uy-joyga bo‘lgan huquqlarini himoya qilish, uning daxlsizligini kafolatlash, aholining barcha qatamlari, ayniqsa, muhtoj toifalarni uy-joy bilan ta’minlash bo‘yicha davlatning majburiyatlarini mustahkamlash zarur. Sudning qarorisiz hech kim uy-joyidan mahrum qilinmasligi kerak. Imorat buzilishga tushadigan bo‘lsa, buning uchun buzishdan oldin uning qiymatiga mos ravishda kompensatsiya to‘la-nishi shart. Uy-joyga yoki shaxsning boshqa mol-mulkiga uning ruxsatisiz kirish, ularni ko‘zdan kechirish va tintuv o‘tkazishga faqat qonunda belgilangan holat va tartibda yo‘l qo‘yilishi Konstitutsiyada qat’iy belgilanishi dardkor.

Asosiy qomusimizda xususiy mulk himoyasini ta’min-lash uchun zarur bo‘lgan konstitutsiyaviy kafolatlarni kuchaytirish lozim. Toki, katta-kichikligidan qat’i nazar, har bir tadbirkor doimo davlat, Konstitutsiya, qonunlar himoyasida ekanini amalda his etsin. Rivojlangan davlat-lardagi kabi shunday tartib o‘rnatilishi lozimki, mulkdor sud qarorisiz, o‘zining roziligi-siz, adolatlari tovon pulisiz mulkidan mahrum etilmasin.

Insonning mehnatga va munosib hayot sharoitlari-ga, ishsizlikdan himoyalashga bo‘lgan huquqlarining ishonchli himoyasini ta’minlash, kambag‘allikni qisqar-tirish konstitutsiyaviy islohotlarning muhim maqsadidir. Asosiy qonunimizda har bir shaxsning qulay mehnat sharoitida ishlash, mehnati uchun munosib haq olish huquqini mustahkamlash, mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori insonning o‘zi va oilasining hayot kechirishi uchun yetarli miqdorda bo‘lishini belgilash zarur.

Tabiatdagi global iqlim o‘zgarishlari tobora keskin tus olayotgani ekologik xavfsizlikni g‘oyat dolzarb masalaga

aylantirdi. Shu bois Konstitutsiyamizda ushbu yo‘nalishga doir ekologik-huquqiy normalar o‘z ifodasini topishi muhim. Hech shubhasiz, bun-day konstitutsiyaviy o‘zgarishlar jamiyatimizda fuqarolarning ekologik huquqlari va majburiyat-lari, ayniqsa, mansabdor shaxslarning tabiat himoyasi uchun mas’uliyatini keskin os-hirish, aholining ekologik madani-yatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Davlatning erkaklar va ayollar, oilalar va bolalar, yoshlar va nuroniylar, nogironligi bor shaxslar, mamlakatda yoki uning tashqa-risida bo‘lishidan qat’i nazar, barcha insonlar haqida qayg‘urishi Konstitutsiyada mustah-kamlanishi zarur.

Bosh qonunimizda xalq hokimi-yatchiligini, hokimiyat tarmoqlarini bir-birini tiyib turish va muvozanatda saqlash mehanizmlarini ta’minlashni yanada kuchaytirish talab etiladi. Bunda avvalambor, hukumatni shakllantirish va uning samarali faoliyati yuritishini ta’minlashda Oliy Majlisning vakolatla-rini kengaytirish bo‘yicha tegishli qoi-dalarni Asosiy qonunimizda belgilash ham muhim.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimini isloh qilishdagi zarur masa-la bu joylarda hokimlar va mahalliy kengashlar vakolatlari ajratishidir. Bu tartibning joriy etilishi hokimiyat vakolatlarini bo‘linish prinsipini mahalliy darajada tatbiq etishga, mahalliy kengashlar faoliyati sa-maradorligini, hokimlarning xalq vakillari oldidagi mas’uliyatini oshirishga olib keladi.

Konstitutsiyaviy islohot orqali inson qadrini amalda eng oliy qadriyat darajasiga ko‘tarish-ga qaratilgan barcha amaliy ishlarimizning mustahkam huquqiy asoslarini yaratib, ertangi kunimiz, kelajagimiz qanday bo‘lishini belgilab olishga erishishimiz mum-kin.

Samad TOLLIBOYEV,
Samarqand davlat universiteti doktoranti.

MIKROFIRMALARDA BOSHQACHAROQ

Yangi Mehnat kodeksida mikrofirmalardagi mehnatning alohida xususiyatlari va qoidalar nazarda tutilmoqda. Kodeks-ning 29-bob 1-paragrafidagi 504-, 505- va 506-moddalarda ana shunday o‘ziga xos normalar mikrofirmalar egalari-ga va rahbarlariga ancha qulaylik beradi.

Birinchidan, mikrofirmalar uchun ba’zi bir ichki hujjatlarni tasdiqlash majburiy bo‘lmaydi. Misol uchun, mikrofirmalar ichki mehnat tartibi qoidalarini, mehnatga haq to‘lash to‘g‘risi-dagi nizom, mukofotlash haqidagi nizom, smenalar jadvali va boshqa shunga o‘xshash hujjatlardan to‘liq yoki qisman voz kechishga haqli.

Ikkinchidan, mikrofirmalar ishga qabul qili-nayotgan shaxs-lar bilan o‘zaro kelishuv asosida muddatli mehnat shartnoma-lari tuzishlari mumkin, garchi bu shaxs bajaradigan ish va uning xususiyati muddatli xarakterga ega bo‘lmasa ham.

Uchinchidan, mikrofirma xodimning mehnat sharoitlarini o‘zgartirmoqchi va ish beruvchining boshqa joyga ko‘chishi munosabati bilan joyni o‘zgartirmoqchi bo‘lsa, xodimni kami-da 1 oy oldin yozma ravishda xabardor qilishi lozim bo‘ladi. Boshqa umumiy holatlarda va boshqa korxonalarda bu mud-dat kamida 2 oyni tashkil qiladi.

To‘rtinchidan, mikrofirma xodimi ish beruvchi bo‘lgan mikrofirmani 7 kalendar kun oldin yozma ravishda ogohlantirib, o‘z tashabbusiga ko‘ra mehnat shartnomasini bekor qilishga haqli bo‘ladi. Boshqa umumiy holatlarda bu muddat 14 kalendar kunni tashkil qiladi.

Beshinchidan, mehnat shartnomasini intizomiy jazo si-fatida bekor qilishga asos bo‘ladigan mehnat vazifalarini bir marta qo‘pol ravishda buzilishlar ro‘yxati xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasida belgilab olinishi mumkin. Umumiy ho-latlarda bular korxonaning ichki mehnat tartibi qoidalarini bilan belgilab olinadi.

Oltinchidan, mikrofirma rahbari o‘z xodimi bilan tuzilgan mehnat shartnomasini Mehnat kodeksida nazarda tutilgan asos-lardan tashqari mehnat shartnomasida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha ham bekor qilishga haqli bo‘ladi. Masalan, mikrofirma xodimi bilan tuzilgan mehnat shartnomasida korxonaning og‘ir moliyaviy ahvolda tushib qolishi yoki xodimning mehnatiga zarurat qolmaganligi kabi holatlarda mehnat shartnomasi to‘g‘ri-dan-to‘g‘ri shu asoslar bilan bekor qilinishiga oid murakkab bo‘lmagan shartlar nazarda tutilishi mumkin.

Yetinchidan, mikrofirma xodimini mehnat shartnomasini bekor qilish to‘g‘risida ogohlantirish muddatlari, shuningdek, mehnat shartnomasi bekor qilinganda to‘lanadigan ishdan bo‘shatish nafaqasini hamda boshqa kompensatsiya to‘lovla-rini to‘lash hollari va miqdorlari bemalol mehnat shartnomasi-da belgilab olinishi mumkin. Bunday shartlar va bu kafolatlar agar mehnat shartnomasida ko‘rsatilmagan bo‘lsagina, Mehnat kodeksi hamda mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda ko‘rsatilgan kafolatlar qo‘llanadi.

Eslatma, ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan 20 kishi, xizmat ko‘rsatish sohasida va ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa tarmoqlarda band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan 10 kishi bo‘lgan, ulgurji, chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish tarmoqlarida band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan 5 kishi bo‘lgan yuridik shaxslar mikrofirma hisobla-nadi.

ODAMLAR O‘ZGARGAN

Bir oydan ortiq vaqtdan buyon Paxtach-i tumanida referendum targ‘ibot tadbirlari-da ishtirok etib kelyapmiz.

Bu muhim siyosiy jarayonga hech kim befarq emas. Kattayu kichikning yangilanayotgan Konstitutsiya haqida o‘z fikri, tushunchasi bor. Bosh qonunimizning qaysi jihat-lari o‘zgarimoqda, nima yangiliklar kiritilyapti, buning oddiy insonlar uchun qanday ahamiyati borligi – hamma-hamma-sidan xalqimiz xabardor bo‘lmoqda. Dastlabki ma’lumotlar-ga ko‘ra, 95 mingdan ortiq paxtachiliklar referendumda ovoz berish uchun ro‘yxatga olingan. Shu kunlarda ularga taklif-nomalar tarqatildi. 43 ta uchastkaning barchasi ovoz berish uchun tayyor holatga keltirilgan. 30-aprel kuni o‘z yashash joyida bo‘lmaydigan fuqarolar muddatidan oldin ovoz berish huquqidan foydalandi.

Ko‘p yildan buyon bu kabi siyosiy jarayonlarda qatnashayot-gan kishi sifatida aytishim mumkinki, odamlar o‘zgargan, ular o‘z kelajagiga, yurt ertasiga e’tiborsiz emas. Ular referendumda faol ishtirok etishlariga ishonaman.

Paxtachidagi mahallalar, korxona va tashkilotlardagi targ‘ibot tadbirlarimiz davomida xotin-qizlar huquq va manfaatlarini hi-moya qilish, ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri ekanligidan kelib chiqib, ushbu masalalarga ham alohida e’tibor qaratdik.

Xususan, Ko‘rpa, Sardoba, Quvondiq, Gulobod, Dobusqal’a, Burqut, Nurafshon, Gulshan mahallalarida yashovchi, ijtimoiy ko‘makka muhtoj o‘ndan ortiq xotin-qizlarga tikuv mashinalari, moddiy yordam puli berildi.

13-aprel kuni Shamsi Nazar mahallasida o‘tkazilgan sayyor qabul-da esa aholi tomonidan o‘ttizga yaqin masala yuzasidan murojaatlar qabul qilinib, kasaba uyushmalari bilan bog‘liq masalalarga shu yerning o‘zida yechim topildi. Boshqa muammolar esa tuman va viloyat mas’ul-lariga yetkazilib, ijobiy hal etish choralari ko‘rilmog‘da.

Keyingi bir oy davomida kasaba uyushmalarining "O‘zbekiston bo‘ylab sayohat" dasturi asosida 40 nafardan ortiq paxtachilik xotin-qizlar Toshkent va Xorazmga sayohatga yuborildi.

Suhrob RAFIQOV,
O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi Samarqand viloyati kengashi raisi.

Mamlakatimizda axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan hamda banklararo raqobat kuchayayotgan zamonda viloyat moliya-bank tizimida o'z o'rniga ega "Agrobank" aksiyadorlik-tijorat banki viloyat boshqarmasi bank mijozlari, kichik biznes subyektlari hamda fermer xo'jaliklari uchun tezkor, ishonchli, innovasion bank xizmatlarini joriy etib, yuridik va jismoniy shaxslarga sifati xizmat ko'rsatmoqda.

Bank uzoq yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi asosida mijozlarga masofadan xizmat ko'rsatish, onlayn xizmatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Shuning uchun ham "Agrobank" viloyatdagi banklar ichida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni jihatidan yetakchi o'rinni egallaydi.

Bugungi kunda bankning 102 ta infratu-zilma shoxobchasi bo'lib, ular viloyat bo'yicha 17 ta filial, 7 ta bank xizmatlari markazi, 78 ta 24/7-tizimida ishlovchi shoxobcha orqali 35 mingdan ortiq yuridik, 300 mingdan ortiq jismoniy shaxslarga keng turdagi xizmatlarni ko'rsatib kelmoqda.

Bank ekvayring tizimi bo'yicha viloyatda birinchi o'rinni egallaydi. Viloyat bo'ylab 500 mingdan ziyod faol plastik kartalari, 167 ta bankomat-lari hamda 4738 ta terminalari aholiga xizmat ko'rsatadi.

"Agrobank" aksiyadorlik tijorat banki tomoni-dan raqamli texnologiyalarni qo'llash, banklar-ning samarali ishlaydigan va mijozlar ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan biznes tuzilmaga transfor-masiya qilish borasida keng ko'lamli ishlar tashkil etilgan. Zamonaviy axborot texnologiyalarni rivojlantirish orqali xizmat ko'rsatish darajasini oshirish, aholi va mijozlarga tezkor, innovasion va interaktiv yangi xizmat turlari joriy etilgan.

Xizmatlar ko'lamini kengaytirish maqsadida xizmatlarni raqamli kanalarga o'tkazish orqali jismoniy va yuridik shaxslar uchun quyidagi inno-vasion xizmat turlari taqdim etiladi:

SMART OFIS

Bugungi kunda bank tomonidan "Smart – ofis" qurish ishlari yakunlan-moqda. "Smart – ofis" aqlli shoxob-chasi bank xodimlari ishtirokisiz 24/7 rejimda faoliyat yuritadi. Mazkur shoxobchada barcha turdagi bank operatsiyalarini avtomatlashtirilgan holda bajarish

BIRINCHI BO'LISHGA INTILIB



imkoniyati yaratiladi. Jumladan, kartalarni chiqa-rish, almashtirish, chop etish maxsus kartomat qutilari, ADM, VTM, bankomat, infokiosk hamda "Touchscreen" qurilmalari joylashtiriladi.

"YASHIL ENERGIYA" KREDITI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 fevraldagi "2023 yilda qayta tiklanuvchi en-ergiya manbalarini va energiya tejovchi texnologi-yalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 57-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida "Agrobank" tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga quyosh fotoelektrik stansi-yalari, quyosh suv isitkichlari, shamol generatori, biogaz qurilmalari, qayta tiklanuvchi energiya qurilmalari, energiya samarador gaz grekalli qu-rilmalar va qozonlar sotib olish, o'rnatish uchun kreditlar ajratish yo'lga qo'yilgan.

"AGROBANKMOBILE" MOBIL' ILOVASI

Bankning mobil' ilovasi orqali jismoniy shaxslar ro'yxatdan o'tmasdan, masofadan turib to'lovlarini amalga oshirish, plastik kartadagi mablag'larni boshqarish, barcha xizmat turlariga to'lov qilish, to'lovlar tarixiga ega bo'lish hamda ilovadagi har qanday to'lovlar to'g'risida SMS xabar olish imkoniyatiga ega. Mijoz amalga os-hirgan to'lovlar, to'lovlar tarixida saqlanib qoladi, takroran to'lov amalga oshirilganda kontragent ma'lumotlari qayta kiritilmaydi, to'lov o'tkazish uchun bir necha soniya yetarli bo'ladi.

"Agrobankmobile-Business" ilovasi orqali mijoz-

lar hisob raqamlarini boshqarish, balans hamda o'tkazma qoldiqlarini monitoring qilish, hisoblarni to'ldirib borish uchun onlayn kredit olish, hisob raqamlardan turli maqsadlarda to'lovlar amalga oshirish imkoniyatidan foydalanishi mumkin.

ONLAYN KREDITLAR

Tijorat banklari orasida "Agrobank" ATB bi-rinchilardan o'zining mobil' ilovasi orqali skoring tahlil asosida onlayn mikroqarz, "Avans plyus" (byudjet tashkilotlari xodimlariga), "Madad mikro-qarz"(xalqaro pul o'tkazmalari orqali jo'natilgan mablag'larni qabul qiluvchi jismoniy shaxslarga) ajratish xizmatini yo'lga qo'yd.

Jismoniy shaxslar uchun onlayn mikro-qarz mobil' ilova orqali qarz oluvchining plastik kartasiga oxirgi 12 oy davomida kelib tushgan daromadi (ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, pensiya), skoring tahlil natijasi va oferta shartnomasi tuzilgan sanadan boshlab o'n ikki kun mobaynida to'liq so'ndirish sharti va qayta olish imkoniyati bilan revol'ver shaklda sanoqli daqiqada ajratiladi.

Shuningdek, "Agrobank" ATBda O'zbekis-ton banklari ichida birinchi bo'lib tadbirkorlik sub'ektlari uchun "Agrobankmobile-Business" mobil' ilovasi orqali onlayn-kredit berish yo'lga qo'yildi. Bu xizmat yuridik shaxslar uchun juda qulay, ular bankka kelmasdan masofadan turib, aylanma mablag'larini to'ldirish maqsadida 1 yil muddatga, ta'minotsiz, belgilangan mablag'dan oshgan kredit miqdoriga esa ta'minot sifati-

da, sug'urta polisini kiritgan holda kredit olish imkoniga ega.

ONLAYN BUYURTMA BERISH ORQALI PLASTIK KARTALARNI YETKAZIB BERISH XIZMATI

Mamlakatimizda birinchi marta mijozlarga qu-laylik yaratish maqsadida, bankning muomaladagi plastik kartasini rasmiy veb-sayti yoki mobil' ilovasi orqali onlayn buyurtma tarzida rasmiylashtirish va ushbu kartani mijozga bepul yetkazib berish xizmati yo'lga qo'yildi. Bundan tashqari, mijozlar uchun bankning rasmiy veb-sayti va mobil' ilovasi orqali bankning istalgan mahsulot va xizmatlari bo'yicha onlayn murojaat qoldirish imkoniyati yaratildi.

XORIJIY VALYUTADAGI ONLAYN OMONAT

Aholining bo'sh pul mablag'larini bank omo-natlariga jalb etish maqsadida bugungi kunda 6 turdagi omonat turi ishlab chiqilgan hamda amaliyotga joriy etilgan. Xususan, aholidan milliy valyutada 4, xorijiy valyutada 2 xil omonatlarga mablag'lar qabul qilinmoqda.

Xorijiy valyutadagi "Capital" va "Express" omonat turlarini masofadan turib mobil' ilova orqali jalb qilish joriy etildi. Mazkur xizmat mijoz-lar uchun qulaydir, ular uchun omonatni onlayn boshqarish, mablag'ni qisman yechib olish hamda milliy valyutaga o'tkazish kabi qulayliklar yaratilgan.

SBERBANK BILAN O'ZARO HAMKORLIK

O'zbekistonda ilk bor "Agrobank" ATBda zamonaviy bank xizmatlarini ko'rsatish, shu jumladan, masofaviy bank xizmatlari sohasida nafaqat Rossiya bali MDH va boshqa xorijiy banklar o'rtasida alohida o'ringa ega Rossiya Federatsiyasining "Sberbank"i bilan hamkorlikda pul o'tkazmalarining yangi avlodi - zamonaviy mobil' o'tkazmalar tizimi joriy etilgan. "Sber-bank"ning barcha filiallari va xizmat ko'rsatish shoxobchalari hamda "Sberbank Online" mobil ilovasi orqali "Agrobank" plastik kartalariga mab-lag' o'tkazish - P2P xizmati joriy qilindi. Mazkur yangi xizmatning qulayligi shundaki, kechayu kunduz Rossiyadan O'zbekistonga kartadan kartaga mablag' yuborish mumkin.

BANK PLASTIK KARTALARI

Agrobank tomonidan milliy va xalqaro plastik kartalar tizimini rivojlantirishda ham bir qator

ishlar amalga oshirilib, jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun xalqaro plastik kartalarning "Visa Electron", "Visa Classic" va "Visa Gold" turlari taqdim etilgan.

Xorijdan kelayotgan sayyohlarga qulaylik yaratish maqsadida bankning savdo va xizmat ko'rsatish nuqtalarida o'rnatilgan terminallar Xitoyning (China Union Pay) xalqaro plastik kartalardan to'lovlarini qabul qilish imkoniyati yaratildi.

Shuningdek, ikki turdagi milliy hamda xalqaro to'lov tizimlarida ishlatish mumkin bo'lgan "Ko-beydj" kartalari muomalaga chiqarildi. "Kobeydj" kartalari milliy valyutadagi yagona hisob raqa-miga bog'lanib, karta egasiga so'mni avtomatik ravishda AQSH dollariga konvertasiya qilish orqali chet davlatlarda to'lovlarini amalga oshirish im-koniyatini beradi.

Bank tomonidan xorijga safarga chiqayotgan mijozlar uchun bir vaqtning o'zida 2 ta milliy valy-uta va AQSH dollari hisobiga ega kartani to'ldirish hamda to'lov qilish imkoniyati mavjud mul'tivaly-uta kartasi ham muomalaga chiqarildi.

BANKNING KREDIT KARTASI

Agrobank banklar ichida birinchilar qatori-da kredit kartasini muomalaga chiqardi. Kredit karta mijozlarga ajratilgan limit doirasida mablag' ishlatish imkonini beradi va unda faqat ishlatilgan mablag'lar uchun foiz to'lanadi.

"AGROEKSPRESS" MILLIY PUL O'TKAZMALAR TIZIMI

Yurtimizda "Agrobank"ning 170 ta filiali o'rta-sida birinchilardan bo'lib "AgroEkspress" milliy valyutada naqd shaklda pul mablag'larini yubor-ish va olish xizmati joriy etildi. Mazkur xizmat turi viloyat, tuman hamda chekka hududlar aholisi uchun juda qulay, bu ularga bank mijozlari bo'lmay turib ham, ortiqcha ovoragarchiliksiz mamlakat ichida pul o'tkazmalarini amalga oshirish imkon-i ni beradi.

Aholi hamda yuridik shaxslarga tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun keng imkon-i-yatlar yaratish, ularga moliyaviy ko'mak berish-ning yangi turlarini joriy etish "Agrobank"ning bosh maqsadi bo'lib qolmoqda.

Dostonbek XOLIQOV,

"Agrobank" aksiyadorlik-tijorat banki viloyat boshqarmasi chakana xizmatlarni rivojlantirish bo'limi boshlig'i.

Xizmatlar litsenziyalangan.

Botanika fanining jonkuyari edi



Botanika fanining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Samarqand davlat universiteti professori Mamatqul Ikromov hayot bo'lganida 100 yoshga to'lardi.

Turmush tashvishlari uning boshiga erta tush-di. U 1923-yilda Samarqand tumanining Ohalik qishlog'ida tug'ilgan bo'lsa-da, bolaligi Andijon viloyatining Jalolquduq tumanidagi Savay sovx-ozida o'tdi. Otadan barvaqt yetim qoldi. To'liqsiz o'rta maktabni bitirgach, Jalolobod pedagogika bilim yurtining talabasi bo'ldi. Bilim yurtini tamom-lab, Ikkinchi jahon urushiga otlandi. 1942-yilda ko'ngillilar safida Leningrad mudofaasida qatnash-di. Keyinchalik Volxov, 3-Boltiq bo'y, Karelo-Fin frontlaridagi og'ir janglarda ishtirok etdi.

M.Ikromov jangovar harakatlari uchun "Qizil Yulduz" ordeni, "Leningrad mudofasi uchun", "Jangovar xizmatlari uchun" va boshqa shu kabi 14 ta orden va nishonlar bilan taqdirlandi.

1945-yilda jangda og'ir yaralandi va uni qish-log'iga qaytarishdi. Dastlab qishloq maktabida ishladi. Sog'ligi asta-sekin yaxshilangach, 1948-yil Andijon pedagogika institutiga o'qishga kirdi. Shu davrda talabalarning Respublika ilmiy anju-manida qatnashib, ilmiy ma'ruzasi bilan chiqish qildi. Qarangki, o'sha ma'ruza uning kelajagini belgilab berdi. Bilimga tashna yigit mashhur olim Y.Korovin, Y.Proskoryakovning e'tiboriga tushdi. Ularning tavsiyasi bilan 1949-yilda O'zbekiston davlat universitetining (hozirgi Samarqand davlat universiteti) biologiya va tuproqshunoslik fakulte-tiga o'qishga kirdi. 1953-yil universitetni imtiyozli tugatgach, botanika kafedrasiga ishga olindi. Dastlab assistent, keyin katta o'qituvchi, dotsent, professor, 26 yil davomida botanika kafedrasining mudiri, fakultet dekani lavozimlarida ishladi.

Botanika kafedrasida assistent bo'lib ishlagan kezlari mashhur olim, kafedra mudiri Yevgeniy Proskoryakov o'sha paytlarda hali ko'pchilikka no-ma'lum giyoh-lagohilus (ko'kparang)ni "haqiqiy oltinning o'zi" deb atar, lekin uni kashf etish naqa-dar og'irligini ham aytgan edi. Yosh tadqiqotchi ana shu mushkul ishni tanladi. U dunyoda birinchi bo'lib o'zi topgan va fanga olib kirgan yangi 2 tur lagohilusning birini Proskoryakov lagohilusi deb nomlaganligining boisi ham shunda. Ikkinchisini esa yoshlik yillaridan xotira sifatida Farg'ona lago-hilusi deb atadi.

Mamatqul Ikromov dorivor lagohilus o'simligi ustida o'tkazgan tadqiqotlarini jamlab, 1960-yilda nomzodlik dissertatsiyasini, 1972-yilda esa dok-torlik dissertatsiyasini himoya qildi. Shular asosida yuzdan ortiq ilmiy maqolalar, oltita monografiya nashr ettirdi.



U dunyo miqyosida uchraydigan lagohilusning 41 turini o'rgandi. Ularning biologiyasi, ekologi-yasi, geografiyasi, morfologiyasini ishlab chiqdi, madaniylashtirish yo'llarini topishga muvaffaq bo'ldi. Olimning taklifi bilan professor K.Akopov lagohilusning sharbati bilan tibbiyotda gemofiliya, gipertoniya, ekzema, glaukoma davolashda, qon bosimini normallashtirishda keng qo'llay boshla-di. Eng muhimi, mazkur giyohning qon oqishini to'xtatishda tengi yo'qligi isbotlandi. Olimning ilmiy ishlari Butunittifoq xalq xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasida namoyish etilib, kumush medal bilan taqdirlandi.

Mamatqul Ikromov oliy o'quv yurtlari uchun darslik va o'quv qo'llanmalari yaratish borasida samarali ishladi. U ko'pgina qo'llanma va dars-liklarning muallifidir. Universitetning biologiya fakulteti talabalari uchun "Tuban o'simliklar" va botanika fanidan (o'simliklar morfologiyasi va anatomiyasi) darsliklar yozdi.

Talabchan ustoz, halol va mehnatsevar olim Mamatqul Ikromov 1984-yilda "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi" unvoniga sazovor bo'lgan.

Ustoz mehribon oila boshlig'i bo'lib, turmush o'rtog'i Kimyoxon aya bilan 4 nafar farzandni voyaga yetkazdi. U kishining ishlarni shogirdlari va farzandlari davom ettirmoqda.

Xudoyor KYELDIYAROV,
SamDU biologiya fakulteti dekani, professor.
Xislat HAYDAROV,
botanika kafedrasida mudiri, professor.

"SIYOB DEHQON BOZORI"

MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI TA'SISCHILARI DIQQATIGA!

"Siyob dehqon bozori" mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischilarining navbatdagi umumiy yig'ilishi 2023-yil 22-may kuni soat 11:00 da "Siyob dehqon bozori" MCHJ ma'muriyati binosida o'tkaziladi.

YIG'ILISH KUN TARTIBIDA:

1. Jamiyat direktorining 2022-yil uchun hisoboti;
2. "Siyob dehqon bozori" MCHJ kuzatuv kengashining 2022-yil uchun hisoboti;
3. Jamiyat taftish komissiyasi hisoboti;
4. 2022-yil yakunlari bo'yicha audit xulosasini tasdiqlash;
5. Jamiyatning 2022-yil yakunlari bo'yicha balansi va moli-yaviy natijalarini tasdiqlash;
6. Jamiyatning 2022-yil bo'yicha olingan foydasini taq-simlash;
7. Jamiyatning 2023-yilga mo'ljallangan biznes-rejasini

DA'VOLAR BO'LSA...

Urgut tumanidagi "KAMANGARON ISSIQ NON" mas'uliyati cheklangan jamiyati (STIR: 305931665) o'z ustav fondini 1 000 431 787,85 (bir milliard to'rt yuz o'ttiz bir ming yetti yuz sakson yetti so'm sakson besh tiyin) so'mdan 590 000 000 (besh yuz to'qson million) so'mga kamaytirmoqda. Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha da'vo-lar gazetada e'lon chop etilgach, bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Urgut tumani Kamangaron mahal-lasi.

Urgut tumanidagi "EURO STYLE SHOES O'ZBEKISTON-XITOY" mas'uliyati cheklangan jami-yati qo'shma korxonasi (STIR: 302247663) o'z ustav fondini 6 347 757 764,25 (olti milliard uch yuz qirq etti million yetti yuz ellik yetti ming etti yuz oltmish to'rt so'm yigirma besh tiyin) so'mdan 1 347 757 764,25 (bir milliard uch yuz qirq etti million yetti yuz ellik yetti ming etti yuz oltmish to'rt so'm yigirma besh tiyin) so'mga kamaytirmoqda.

Shu munosabat bilan unga bildiriladigan bar-cha da'volar gazetada e'lon chop etilgach, bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Urgut tumani Qoratepa ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Shuhrob Berdiqul-ovich notarial idorasida marhum Raximov Abduxafiz Rashidovichga (2003-yil 30-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Shuhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ul-lanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Nizamova Raximaga (2016-yil 21-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munos-abat bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko'chasi, 35-uy, 3-xona.

tasdiqlash;

8. Ish haqqidan to'lov muddati o'tgan kreditor qarzlarni hisobdan chiqarish;
9. Jamiyat hisobidagi yaroqsiz inventar va materiallarni hisobdan chiqarish masalasi;
10. "Siyob dehqon bozori" MCHJ kuzatuv kengashi a'zola-rini saylash;
11. "Siyob dehqon bozori" MCHJ kuzatuv kengashi taftish komissiyasini saylash;
12. "Siyob dehqon bozori" MCHJ direktorini saylash.

Manzil: Samarqand shahri Bibixonim (8-mart) ko'chasi, 8-uy.

Mo'ljal: "Siyob dehqon bozori" MCHJ ma'muriyati.

Murojaat uchun telefon: +99866-235-03-83.

JAMIYAT KUZATUV KENGASHI.

TANLOV O'TKAZILADI

O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali quyidagi lavozimlarga tanlov e'lon qiladi:

Dotsent lavozimiga: "Sport psixologiyasi, ijtimoiy-tabiiy fanlar" kafedrasiga;
Katta o'qituvchi lavozimiga: "Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati", "Sport psix-ologiyasi, ijtimoiy-tabiiy fanlar" kafedralariga;

O'qituvchi lavozimiga: "Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati" kafedrasiga.
Tanlovda ishtirok etishni istaganlar quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:
Filial direktori nomiga ariza, yashash joyi ko'rsatilgan pasport nusxasi, kadrlarni qayd qilish shaxsiy varaqasi, oliy ma'lumoti haqidagi diplom nusxasi. Qatnashuvchilarda ilmiy daraja, ilmiy unvon, shuningdek, ilmiy ishlar va ixtirolar mavjud bo'lgan taqdirida ularga tegishli diplomlar, attestatlar nusxalarini, malaka oshirish haqidagi sertifikatlarni taqdim etishlari kerak.

Eslatma: Tanlovda ishtirok etish uchun arizalar e'lon chop etilgan kundan boshlab bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Samarqand shahri, Cho'pon ota ko'chasi, 13-"A" uy.

Telefonlar: +99866-236-21-28, +99893-357-74-95.

e-mail: minsport_markaz_sf@umail.uz

FILIAL MA'MURIYATI.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek To'li-bovich notarial idorasida marhum Sattarovna Ramziyaga (2016-yil 8-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu mu-nosabat bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek To'libovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Ha-sanovna notarial idorasida marhum Sattarovna Saidaga (2007-yil 26-noyabrda vafot etgan) te-gishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasida marhum Ruziyev

Shuxrat Tiliyavovichga (2022-yil 19-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilm-oqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mur-tazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Orzu Mahmudov ko'chasi, 12-uy.

BEKOR QILINADI

Past Darg'om tumanidagi "STAR KARAVAN SHUNQOR" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 307132083) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Past Darg'om tumanidagi Muminova Charoz Sayfitdinovna yakka tartibdagi tadbirkorining (STIR: 601786033) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

TOPGANGA MUKOFOTI

Samarqand viloyat ichki ishlar boshqarmasidan Yusupov Asat Azamovichga berilgan 2866-raqamli pensiya guvohnomasi Samarqand shahri hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99891-521-93-31.

Iqtisodiyotida turizm yetakchi tarmoq hisoblangan koʻplab mamlakatlarda muzeylarning imkoniyatlaridan samarali foydalaniladi. Davlatimiz rahbari tomonidan 2022-yil 27-mayda qabul qilingan “Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qaror mamlakatimizda ham muzeylar imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun keng yoʻl ochdi.

Qarorda 2022-2023-yillardan eʼtiboran davlat muzeylarida qoʻshimcha xizmatlar tashkil etilishi belgilandi. Shunday xizmatlardan biri “open air fest” koʻngilochar dasturi boʻlib, muzeylarga sayyohlarni jalb qilishda sinalgan mexanizmdir. Open – ochiq, air - havo soʻzlaridan olingan boʻlib, ochiq havoda musiqali chiqishlar, konsertlar va festivallar oʻtkazishni bildiradi.

Viloyatimizdagi Oʻzbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyiga qarashli muzeylarda joriy yilda 52 ta shunday koʻngilochar dastur oʻtkazish rejalashtirilgan boʻlib, hozirga qadar 16 marotaba targʻibot tadbiri sharqona uslubda oʻtkazildi.

Tashkil etiladigan tadbirlarning hajmi turli xil boʻlishi mumkin. Bir necha kishidan tarkib topgan jamoaviy tadbirlardan tortib bir necha ming kishi qatnashadigan musiqali shougacha tashkil



dunyo turizm tajribasida sinalgan uslub

etiladi. Unda turli xil musiqali chiqishlar, xalq musiqasi va mumtoz musiqadan tortib dunyoda urf boʻlgan musiqiy yoʻnalishlar ham ijro etilishi mumkin. Xalqaro tajribada, masalan, Misr ehomrlari yonida “Aida” opera guruhining konserti har yili anʼanaviy tarzda oʻtkaziladi.

Keyingi yillarda open air tadbirlari doirasida dunyoda turli xil musiqa festivallari tashkil etil-

moqda. Ularga mashhur musiqa yulduzlari taklif etilib, yigʻilganlarga oʻz ijodini namoyish etadi. Masalan, Germaniyaning Vakken shaharchasida har yili oʻtkaziladigan “Wacken open air” musiqa festivaliga 75 mingdan ortiq tomoshabin qatnashadi. Shu kabi Yevropaning bir qancha davlatlarida turizm mavsumida bunday festivallar tashkil etiladi va bu oʻz natijasini beradi.

Open air musiqali tadbirlari yurtimizdagi barcha muzeylarga ham mos kelavermaydi, albatta. Chunki bunday tadbirlarni muzey ichida oʻtkazish binoning oʻziga, shuningdek, unda namoyish etilayotgan ashylolarga zarar yetkazadi. Qolaversa, ziyorat qilinadigan ulugʻ qadamjolar, Samarqand shahridagi meʼmoriy yodgorliklar, xususan, Amir Temur maqbarasi temuriylar abadiy qoʻnim topgan joy sifatida bu kabi tadbirlar uchun xos emas. Amir Temur jome masjidi va Bibixonim maqbarasi haqida ham shunday deiysh mumkin. Ammo bunday tadbirlarni Oʻzbekistonda mavjud boʻlgan 7 ta muzey-qoʻriqxonada tasarrufida boʻlgan maydonlarda oʻtkazish yaxshi samara beradi. Muzeylarda esa bevosita muzey binosidan tashqaridagi hovli va maydonlarda tashkil etish maqsadga muvofiq. Kichikroq musiqali chiqishlarni Oʻzbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi, Samarqand shahri tarixi Afrosiyob muzeyi, Mirzo Ulugʻbek muzey majmuasi, viloyat oʻlkashunoslik muzeylari hovlisida ham oʻtkazish mumkin.

Bunday musiqali tadbirlarni tashkil etish dunyo tajribasida sinalgan uslub boʻlib, muzeylar va diqqatga sazovor joylarga sayyohlarni jalb etishda yaxshi samara beradi.

Zokir JAYNAROV,
Samarqand davlat muzey-qoʻriqxonasi marketologi.

Oʻqing, qiziq

Dunyodagi mashhur tillarning qancha soʻzlashuvchisi bor?

Yerdagi odamlar koʻproq qaysi tilda gaplashadi, qaysi til eng mashhur? Ingliz tili dersizmi? Yoʻq, unday emas, dunyodagi eng ommalashgan til roʻyxatimizning ikkinchi pogʻonasidan joy olgan. Umuman olganda dunyoda, 7 mingdan ortiq tillarda soʻzlashiladi, ulardan oʻntaga yaqini eng mashhurlaridir.

Xitoy tili - 1 milliard 300 million soʻzlashuvchi

Bu til Xitoy Xalq respublikasi, Tayvan va Singapur davlatlarining ham rasmiy tillaridan biri. Xitoy tili dunyodagi eng qiyin hisoblanadi va Birlashgan millatlar tashkilotining oltita rasmiy tillaridan biridir.

Ingliz tili - 600 million soʻzlashuvchi

Eng ommalashgan tilda 106 ta davlatda soʻzlashadi. U Buyuk Britaniyaning rasmiy va asosiy tili hisoblanadi. Hindiston, Irlandiya, Yangi Zelandiya, Kanada va Filippinda ingliz tilidan tashqari oʻz rasmiy tillari mavjud.

Hind tili - 490 million soʻzlashuvchi

Hindistondan tashqari Nepal, Bangladesh va Pokistonning ayrim hududlarida hind tilida gapirishadi. Koʻpchilik hind tili tez orada dunyoda eng koʻp soʻzlashuvchisiga ega boʻlib, xitoy tilidan oʻzib ketadi, deb taxmin qilmoqda.

Ispan tili - 427 million soʻzlashuvchi

Ispan tilining dunyodagi 31 davlatda soʻzlashuvchisi bor. Ispan tili BMT, Yevropa ittifoqi va Janubiy Amerika millatlar ittifoqi kabi xalqaro tashkilotlarning rasmiy tilidir.

Arab tili - 267 million soʻzlashuvchi

Arab tilida dunyoning 58 ta davlatida soʻzlashiladi. Soʻzlashuvchilarning eng koʻp soni Saudiya Arabistoni, Iroq, Quvayt, Suriya, Livan, Iordaniya va Misrda joylashgan. Qurʼoni Karimning arab tilida ekanligi ham bu tilning tarqalishi uchun zamin yaratgan.

Rus tili - 260 million soʻzlashuvchi

Dunyoning 17 ta davlatida rus tilida soʻzlashuvchilar bor. Birlashgan millatlar tashkilotining oltita rasmiy tillaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, rus tili Yevropada eng koʻp soʻzlashiladigan slavyan tili hamdir.

Portugal tili - 240 million soʻzlashuvchi

Portugal tilida dunyoning 12 ta davlatida gaplashiladi. Portugallar Braziliya, Angola, Makao, Mozambik va Venesuela davlatlarida mustamlakalarni oʻrnatish orqali oʻz tillarini dunyodagi eng koʻp soʻzlashiladigan tillardan biriga aylantirgan.

Fransuz tili - 150 million soʻzlashuvchi

Fransuz tilida asosan Fransiya, shuningdek, dunyoning yana 53 davlatida aholining maʼlum qismi soʻzlashadi. Bu til Yevropa Ittifoqi, Xalqaro Olimpiya qoʻmitasi va Birlashgan millatlar tashkiloti kabi koʻplab xalqaro tashkilotlarning rasmiy tili hisoblanadi.

Bahora MUHAMMADIYEVA
tayyorladi.



FESTIVAL YOSHLARNI BIRLASHTIRDI

Samarqand shahridagi “Afrosiyob” stadionida taniqli estrada yulduzlari ishtirokida “Uzbek power” deb nomlangan yoshlar festivali boʻlib oʻtdi.

Unda yoshlar Oʻzbekiston va Qoraqalpogʻiston xalq artisti Ozodbek Nazarbekov, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan artist Alisher Fayz va taniqli sanʼatkorlar kuy-qoʻshiqlaridan bahramand boʻldi.

22 ming nafar yigit-qizlar jam boʻlgan festival doirasida yoshlar Konstitutsiyaviy qonun loyihasiga oid fikr-mulohazalarini bildiridilar.



Uyma-uy kitob tarqatishga roziman, agar...

Yaxshi bilasiz, mahalla doim kishilar bilan gavjum boʻluvchi joylar sira-siga kiradi. Bu yerga ayniqsa, biror ish yuzasidan kelayotgan qiz-juvonlar, uy bekalari ham koʻp. Binoda xotin-qizlar faoli, yoshlar ishi boʻyicha hokim yordamchisi, profilaktika noziri kabi masʼul shaxslar fuqarolarni doimiy qabul qiladi, baʼzida pensiya va nafaqalar, soliq yigʻimlari kabi toʻlovlar ham shu yerda amalga oshiriladi. Keyingi paytda mahalla binosi bilan yonma-yon yoxud unga yaqinroq joyda vaqtincha koʻchma savdo, maishiy xizmat nuqtalari qurilayotganligining sababi ham bu joydagi gavjumlik deb bilaman.

Nega gavjumlik holati xususida soʻz ochdim? Gap shundaki, Paxtachi tumani-ning Ziyovuddin shaharchasidagi axborot-kutubxona markazida ishlayman. Vazifam obunachilar va foydalanuvchilarga xizmat koʻrsatish, yaʼni kutubxonachiman. Aynan shu sohadagi koʻp yillik kuzatishlarimga tayanib, mahalla binosidagi gavjumlikdan biz, kutubxonachilar ham foydalanib qolsak va shu orqali kitobxonlik targʻibotini amalga oshirsak boʻlmaydimi, deymen.

Toʻgʻri, hozirda tumanimizning ayrim mahallalarida kutubxonalar, aniqroq aytсам, shunchaki, xoʻjakoʻrsinga tashkil-lashtirilgan «kutubxonacha»lar bor. Ularda nari borsa 50-60 ta kitob mavjud boʻlib, ak-sariyati allaqachon aholi tomonidan oʻqilgan adabiyotlar.

Keling, shu oʻrinda biroz mulohaza

qilsak. Aytaylik, siz ishingiz tushib, mahalla binosiga keldingiz, murojaatchilar koʻp. Shu payt shundoqqina qoʻshni xonadan xodima chiqib sizni kutubxonaga taklif qildi. Yoʻq deysizmi? Aslo!.. Xodimning kasbiy layoqati sizni u yoki bu adabiy asarga qiziqtirib qoʻya bilishiga bogʻliq. Qarabsizki, mahalla binosiga borib ham ishingiz bitadi, ham ikkita kitob bilan qaytasiz.

Koʻpdan beri shu haqda oʻylayman. Oʻzim ish olib borayotgan Paxtachi tuman markaziy kutubxonasining filialini yashash joyim - Boday mahallasida tashkil qilishni, mahalladoshlarimga kitob tarqatishni orzu qilaman. Mahalla raisamiz ham meni qoʻllab-quvvatlashini aytgan, shtat ham bor, nima yoʻq, deysizmi, yangi kutubxonaga ajratiladigan kitob yoʻq! Va ular saqlanadigan jihozlar yoʻq.



Shu oʻrinda yana bir gap. Mahalla kutubxonachisi oʻz kitobxonlari soni koʻpayishidan manfaatdor boʻlishi lozim. Hozircha tartib bunday emas. Kutubxonachi faoliyati qanday boʻlishidan qatʼi nazar shtatlar jadvalida belgilangan maoshni olaveradi, vassalom. Menga qolsa, oylik maoshimni koʻpaytirish uchun koʻchalar kezib, uyma-uy yurib kitob tarqatishga, obunachilarim sanogʻini oshirishga jon dilim bilan kirishardim. Bu yumushni tadbirkorlikka va hayotiy zarur ehtiyojimga aylantirib olardim.

Qani edi, kutubxonachilik, kitob targʻiboti uchun masʼul shu masalani kun tartibiga qoʻyib, biz kutubxonachilar uchun ham iqtisodiy manfaat eshiklarini ochib bersalar.

Yulduz NARZULLAYEVA,
Paxtachi tumani.

Lolaqizgʻaldogʻim

Lolaqizgʻaldogʻim, aytgil, ne uchun boshing egik,
Ne uchun barglarda shabnam yaltiraydi qaygʻulik?

Men kabi hijron azobi qildimi boshingni ham,
Koʻksing uzra dogʻmi yoki ishq aro qolgan kuyub.

Men uchun ardoqlidursan, ikkimiz ham bir ekan,
Taqdirimiz birligidan sen menga jondan suyuq.

Ne uchun boshing egarsan, ne uchun bagʻringda qon?
Bevafo yor hajri birla balki koʻnglingdir uzuk?

Sen kabi bechoraholman, sevganimga koʻz tutib,
Ishqi hijroni solibdur behisob yelkamga yuk.

Ne sinoat, ne zalolat ikki dinning boshida,
Ikkimizning boshimizda bor ekan bu koʻrgulik.

Mayli, aylaylik nisor jon, lolajonim, ikkimiz,
Mavluda, ishq ichra yongan bitta senmas, koʻpchilik.

Mavluda ROʻZIYEVA,
Ishitxon tumani.

Iltijo

Bodom novdasida gullar jilos,
Bulbul ishq navosin kuylaydi giryon.
Bahor epkinlari iforlar ila,
Qalbingga keltirdi gulshandan salom.

Bulbulga joʻrovoz oshufta yurak,
Dilda ishq sururi, sirli bir tugʻyon.
Bahoriy latofat vujudga ingach,
Muhabbat davriga aylandi zamon.

Bahor nashidasi qalbga boʻlgach jo,
Sogʻinchga aylandi ming bitta jonim.
Shu gulga bogʻlandi taqdirim, illo,
Undan ayirmasin meni xudoyim.

Ravshan SAMANDAROV,
Paxtachi tumani.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta Oʻzbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan roʻyxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 17 642 nusxada chop etildi. Buyurtma 229. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA EʼLONLAR: (66) 233-91-56

BOʻLIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulugʻ Tursunov koʻchasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter boʻlimida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen koʻchasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

Gʻ.HASANOV.

Navbatchi:

X.ERNAZAROVA.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga oʻtish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda

